

## O'ZBEK MA'NAVIY MEROSINING ISLOM OLAMIDA TUTGAN O'RNI

**O'tkir Mavlonov**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasи katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek ma'naviy merosining islom olamida tutgan o'rni hamda badiiy merosi va uning ahamiyati haqida bat afsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, o'zbek ma'naviy va badiiy merosining xalqaro ahamiyati xususida ko'pgina fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'z:** badiiy meros, tarixiy ahamiyat, xalqaro aloqalar, ma'naviy meros, madaniyat, san'at

## МЕСТО ЎЗБЕКСКОГО ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ В ИСЛАМСКОМ МИРЕ

**Ўткир Мавлонов**

Государственный институт искусства и культуры Ўзбекистана  
Старший преподаватель кафедры «Социально-гуманитарных наук»

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о месте узбекского духовного наследия в исламском мире, его художественном наследии и его значении. Также было высказано много мнений о международном значении узбекского духовно-художественного наследия.

**Ключевые слова:** художественное наследие, историческое значение, международные отношения, духовное наследие, культура, искусство

## THE PLACE OF THE UZBEK SPIRITUAL HERITAGE IN THE ISLAMIC WORLD

**O'tkir Mavlonov**

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan  
Senior teacher of the "Social and humanitarian sciences" department

**Abstract:** This article provides detailed information about the place of Uzbek spiritual heritage in the Islamic world and its artistic heritage and its importance. Also, many opinions were expressed about the international importance of the Uzbek spiritual and artistic heritage.

**Key words:** artistic heritage, historical significance, international relations, spiritual heritage, culture, art

2017 yil 23 iyunda Prezidentimizning “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O’zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi. 2017 yil 1 sentyabr kuni davlatimiz rahbari Hazrati Imom majmuasida tashkil etilayotgan Islom madaniyati markazi nomini Islom sivilizatsiyasi markazi deb o’zgartirishni taklif etdi. Ushbu taklif birdek mammuniyat bilan qabul qilindi. O’tgan vaqt mobaynida Prezidentimiz Hazrati Imom majmuasida bir necha marta bo’lib, markazning qurilish jarayoni bilan tanishdi. Markaz qurilishi bo’yicha taqdim qilingan loyihaga alohida e’tibor qaratib, bu markaz bizning islom ma’rifati targ’ibotidagi yuzimiz bo’lishini, shunday ekan, uning tashqi ko’rinishidan tortib, bu yerda ishlatiladigan qurilish materiallarigacha e’tibor berish lozimligini ta’kidladi. 2018 yili yurtimizda muborak Ramazon hayiti nishonlanayotgan ulug’ kunlarda Prezidentimiz bu inshoot poydevoriga ramziy tamal toshini qo’ydi.

Ayni jarayon ketayotgan maydonni kuzatar ekanmiz, Uchinchi Renessans poydevoriga Prezidentimiz bиринчи g’ishtni xuddi shu maydonda qo’ygan ekan, degan o’y kechdi xayolimizdan. O’zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Shoazim Minovarov bilan suhbatimiz ham o’z vaqtida qo’yilgan ana shu qadamning yurtimiz istiqboldagi muhim jihatlari, yangi Uyg’onish davrining zamondoshlarimiz oldiga qo’yayotgan muhim mezonlari borasida kechdi.[1]

“Hamma o’z tarixini ulug’laydi. Lekin bizning yurtimizdagidek boy o’tmish, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo’q. Bu merosni chuqr

o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam ulkan merosimiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur", degan edi Prezidentimiz Islom sivilizatsiyasi markaziga tashriflaridan birida. Markaz poydevoriga ilk bora g'isht qo'yilganidan buyon buyuk allomalarimizning merosi borasida qanday yangi ma'lumotlar kashf etildi?

Aksariyat taniqli G'arb olimlarining e'tiroflaricha, hozirgi kunda butun jahon, ayniqsa, uning eng rivojlangan qismi mamlakatlarida foydalanilayotgan ilg'or texnologiyalardan tortib, kundalik eng zarur iste'mol buyumlarining dunyo yuzini ko'rishi zamirida musulmon olimlarining ilmiy kashfiyotlari yotibdi. Hozirgi zamon raqamli texnologiyalari al-Xorazmiyning algoritmlarisiz, zamonaviy tibbiyot buyuk Ibn Sinoning "Tib qonunlari"siz, arifmetika, matematika, astronomiya, ma'danshunoslik Beruniy dahosi yaratgan asarlarsiz, fazo astronomiyasi Farg'oniy hamda Mirzo Ulug'bekning mashaqqatli mehnatlarisiz hozirgi darajaga yetmagan, yeta olmagan bo'lardi. Qolaversa,sovun, qalam, gul yog'i, hammom, kanalizatsiya kabi oddiy va muhim ashyolar ham ilk Musulmon renessansi paytida kashf qilindi hamda Ispaniya orqali va tijorat yo'li bilan Yevropa va dunyo mamlakatlariga tarqaldi.[2]

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari qatorida Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish ham Prezidentimizning shaxsiy tashabbusi va ahamiyati hamda ko'lami bo'yicha milliy loyiha deb atalishga to'la haqli. Davlatimiz rahbarining markaz qurilishiga tashrif buyurishi, loyihaning amalga oshirilishi jarayoni bilan tanishishi, o'z maslahatlari va tavsiyalarini berishi xayrli an'anaga aylangan. O'tgan ikki yil ichida ham bino qurilishida, ham Islom sivilizatsiyasi markazining muzeyi va kutubxonasini shakllantirishda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Muzeyimiz uchun qabul qilingan eksponatlar mamlakatimiz hududida Islom dini hali tarqamasdan avval ham buyuk sivilizatsiyalar mavjud bo'lganini tasdiqlamoqda. Chindan ham Sarmishsoy

qoyatosh suratlari (petrogliflar), Afrosiyob yodgorliklari, Qo'y qirilgan qal'a, Ayritom frizlari, Mug' tog'idan topilgan yozma manbalar, Kushon sivilizatsiyasi va boshqa yodgorliklar, shuningdek, yozma manbalar ham aynan keng ma'noda olingan Markaziy Osiyoda Birinchi Islom uyg'onish (yoki ma'rifat) asri uchun poydevor yurtimizga islom dini kelishidan ancha oldin qo'yilganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, umumiy soni 1000 dan oshgan qo'lyozma va toshbosma asarlar shuni ko'rsatmoqdaki, jangovar ateizm deb atalgan va arabi yozuvdagi har qanday manbalar taqiq ostiga olingan davrlarda ham xalqimiz ularni saqlab qola olgan. Kutubxonamizga qabul qilingan yangi manbalar orasida ulug' shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy 1492 yilda o'z qo'li bilan ko'chirgan "Al-Qofiyaga sharh" asari, 1000 hijriy yilda o'ta nafis yozuvda jamlangan Qur'oni karim qo'lyozmasi, Zayn al-Din Jurjoniyning (1040-1136) tibbiyotga bag'ishlangan "Xorazmshohlar xazinasi", Xiva xoni Muhammad Rahimxon 2 – Feruzning o'zi hayotligida ko'chirilgan devoni va islomshunoslik, falsafa, fiqhga oid boshqa ko'lab asarlar bor. Ayni paytda bu asarlar mutaxassislar tomonidan jiddiy o'rganilyapti. Shuningdek, tarjimonlarimiz Feruz g'azallarini hozirgi o'zbek tiliga o'girishmoqda.[3]

Jahon ma'naviy-ma'rifiy maydonida Istanbuldagi To'pqopni muzeyi, Ibn Xoldun universiteti, Istanbul Islom tadqiqotlari markazi, Frantsiya islom markazi, Oksford islom tadqiqotlari markazi kabi xalqaro tashkilotlarning nufuzi juda baland. Ulardagi muhit va tadqiqotlar jarayoniga xos bo'lган qaysi jihatlar e'tiborga molik deb bilasiz? Umuman, hozirgi kungacha markaz qanday nufuzli xalqaro tashkilot va yirik muassasalar bilan hamkorlik o'rnatdi?

Ta'kidlash kerakki, albatta, nufuzli xalqaro islom ilmiy-tadqiqot tashkilotlari sifatida siz sanab o'tgan muassasalar bilan hamkorlikka biz katta qiziqish bilan qaraymiz. Ularning ajodolarimiz merosini o'rganish sohasidagi tajribalari, erishgan natijalari, qo'lyozma va bosma manbalari fondlari hamisha bizning e'tiborimizda. Lekin aytish lozimki, o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsadlari va me'moriy yechimi

bo'yicha bizning markazimiz ham nufuzli xalqaro tashkilotlarni nihoyatda qiziqtirmoqda. Ayniqsa, islomning oltin davri olimlarining ilmiy-ma'rifiy meroslarini saqlash, targ'ib qilish, islom sivilizatsiyasi tarixini o'rganish, eksponatlar, eng zamonaviy multimedia imkoniyatlari vositasida tabarruk dinimizning asl tinchlik, odamiylik, bag'rikenglik, ilm-fan va bunyodkorlik dini ekanini jamiyatimiz a'zolari, ayniqsa, yoshlarga tushuntirish kabi maqsadlarimiz ularni ko'proq o'ziga jalb etmoqda. O'tkazilgan uchrashuv va tadbirlar davomida xattotlik, sahhoflik, miniatyura, qo'lyozmalarni davolash, tiklash kabi kasblarni tiklayotganimiz, shuningdek, yoshlarni arab, fors, eski o'zbek, ingliz va lotin tillariga o'rgatish jarayoni, Xalqaro islom akademiyasi bilan hamkorlikda yuqori malakali islomshunos olimlar tayyorlash kabi vazifalarimiz ushbu tashkilotlar vakillarini nihoyatda quvontirayotganini qayta-qayta ta'kidlashmoqda.

Biz Germaniya universitetlari huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlari, Malayziyaning Islomni anglash instituti bilan hamkorlik to'g'risidagi memorandumlarni imzoladik. Joriy yilning 29 sentyabrida O'zbekiston-Misr hukumatlararo qo'shma komissiyasi onlayn yig'ilishida Misr kitoblar va milliy arxivlar uyi bilan navbatdagi memorandum imzolanadi.[4]

Yaqin kelajakdagi rejalarimizda Muhammad Rahimxon II – Feruzning devoni, taniqli vatandoshimiz, ilm-fan, madaniyat va sport homiysi Alisher Usmonov tomonidan markazimiz kutubxonasiga hadya qilingan bebaho 5 mingga yaqin ilmiy manbani o'z ichiga olgan "Sharq va G'arb" jamlamasining 7 tildagi ilmiy fixristi, jadidchilik nomini olgan, aslida ma'rifatchi ajdodlarimiz asarlarining fixristi, X.Kolumb faoliyatida Farg'oniy va Ibn Sino ilmiy merosining ta'siri to'g'risida yaratilgan "Dunyo qiyofasi" asarini lotin tilidan o'zbekchaga tarjima qilish belgilangan.

Markazimizning islomiy manbalar bo'limi mudiri, taniqli shoir, publisist va tarjimon Mirzo Kenjabek tomonidan qayta ko'rilgan va to'ldirilgan, taniqli tarjimon

va islomshunos Sayfiddin Sayfulloh tomonidan nashrga tayyorlangan, mashhur ulamo Muhammadjon mulla Rustam o'g'li (Mavlaviy hoji Hindistoniy) tomonidan tarjima qilingan Qur'on karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasini qayta nashr qilishdek muhim jarayon ham oldimizda turibdi. Hozir ushbu rejalarни amalga oshirish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda.[5]

O'zbekiston nufuzi bo'yicha BMTdan keyingi o'rinda turuvchi Islom hamkorlik tashkilotining teng huquqli hamda faol a'zosi hisoblanadi. 2016-2017 yillarda mamlakatimiz IHTga raislik qildi. Tashkilotga a'zo 57 mamlakat, kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar, shuningdek, hamkor xalqaro tashkilotlar to'g'risida ma'lumotnomma tayyorlandi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizdagи davlat idoralari hamda muassasalari, oliv o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari hamda talabalari uchun bunday manba juda qo'l keladi. Ma'lumotnomada har bir a'zo va kuzatuvchi mamlakat hamda xalqaro tashkilot to'g'risida atroflicha ma'lumot berilgan. Ma'lumotnomani har yili yangilab borishni rejalashtirganimiz. Uni tayyorlashda Islom hamkorlik tashkiloti tizimidagi ICESCO va IRCICA markazlari bilan hamkorlik qilindi. Islom sivilizatsiyasi qomusiy lug'atiga kelsak, Xalqaro islom akademiyasi tomonidan "Islom entsiklopediyasi" va "Azon kitoblari" nashriyot-matbaa birlashmasi tomonidan "Katta fiqh entsiklopediyasi" nashr etila boshlanganidan xabardormiz. Ushbu nashrlarning ham, bizning qomusiy lug'atimizning ham o'z o'mni, vazifasi va ahamiyati bor. Ayni nashr bo'yicha hamkorlarimizning ijobjiy fikr-mulohazalarini oldik va uni nashr etish masalalarida ICESCO va IRCICA bilan hamkorlik qilmoqdamiz. Ta'kidlashni istardimki, barcha nashrlarimiz lotin va kirill yozuvlarida tayyorlanmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi loyihasi, ayniqsa, markaz oldiga qo'yilgan maqsadlar va vazifalar xalqaro jamoatchilikda ham katta qiziqish uyg'otdi. Markaziy Osiyoda 750-1150 yillarda kuzatilgan Ilk uyg'onish davri tarixiy bosqichi, shu davrda yashagan Buxoriy,

Termiziy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg'oniy kabi nafaqat islom xazorasi, balki bashariyat sivilizatsiyasiga o'z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan hissa qo'shgan mutafakkirlar hamda olimlar merosini jamlash, saqlash, targ'ib qilish orqali islomning asl mohiyati tinchlik, bag'rikenglik, bunyodkorlik ekanini ko'rsatib berish g'oyasi olijanob va dolzarb, deya e'tirof etildi. "O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnalimizning dastlabki sonida yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rinni olgani xorijlik hamkorlarimiz e'tiborini jalg etdi. Ushbu sonda akademik A.Hakimov, professorlar J.Ismoilova va S. Bulatov kabi nufuzli olimlarimiz bilan bir qatorda yosh mutaxassislarimiz N.Mansurova, Yu.Mamadiyarova, A. G'ofurovning ham ilmiy maqolalari e'lon qilindi. Ayniqsa, A.G'ofurovning Islom sivilizatsiyasi markazi qo'lyozma fondi to'g'risidagi batafsil maqolasi frantsiyalik sharqshunos olimlar V.Furnyo, F.Fatxida, Londondagi "Al-Furqon" islom ilmiy markazi direktori Shax Suvoriy va uning jamoasi a'zolarida katta qiziqish uyg'otdi. Jurnalimizda xorijiy hamkorlarimizning ham ilmiy ishlari e'lon qilinmoqda. Ushbu 1-sonda frantsiyalik J.P.Lyuminening "Ulug'bek - yulduzlar shahzodasi" va turkiyalik professor Namig Musalining "Mirzo Shohruh va so'fiylar" maqolalari e'lon qilingan. Jurnal xorijdagi elchixonalarimiz orqali kutubxonalar va ilmiy markazlarga ham tarqatildi.[6]

Faqat "Yangi O'zbekiston" uchun bir yangilikni oshkor qilmoqchiman: shu kunlarda Erkin akaning "Arbob Qulov Parijga boradi" sarlavhali hikoyasining frantsuz tiliga tarjimasini tugatyapman. Hurmatli yozuvchimizning frantsiyalik muxlislari ushbu hikoyani kutayotganliklaridan ham xabardorman.

Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatida tarjima katta va muhim o'rinni tutadi. Birinchi navbatda, ilmiy-badiiy manbalar arab, fors, eski o'zbek tillaridan, shuningdek, Yevropa tillaridan hozirgi o'zbek tiliga o'giriladi. Ushbu jarayonda, albatta, birlamchi manba mazmuniga sodiqlik, o'zbek tilidagi matn esa tushunarli bo'lishi talab etiladi. Ushbu talab va mezonlar, turgan gapki, sohaning yetuk

mutaxassislarini tayyorlashni talab qiladi.

Mustaqillik yillarda, ayniqsa, keyingi to'rt yil ichida mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar darhaqiqat 750-1150 yillardagi Birinchi Uyg'onish davri, 1370-1507 yillardagi Ikkinci Uyg'onish (Temur va temuriylar Renessansidan) keyin Uchinchi Uyg'onish davriga qadam qo'yayotganimizdan darak beryapti. Ishonchim komilki, bu quruq gap emas, aksincha, haqiqat va haqqoniyatdir. Yevropa XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Uyg'onish davriga qadam qo'ydi. Aynan shu davrida Vizantiya imperiyasining qulashi, Yevropaga qochib borgan vizantiyaliklar asrlar mobaynida imperiya poytaxti Konstantinopolda to'plangan kutubxonalar, san'at asarlarini o'zлari bilan olib ketishlari, birinchi bosqichda Italiyada, keyinchalik Frantsiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida ilmiy kashfiyotlar, adabiyot va san'atning, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlanishi kuzatildi. Va... inson qadri ulug'landi. Yevropalik mutaxassislarning o'zлari ushbu jarayonlarning barchasida unutilayozgan ilmiy, madaniy, adabiy merosga berilgan alohida e'tibor hal qiluvchi rolъ o'ynadi, deb hisoblaydilar. Ayni paytda, ushbu voqealardan avvalroq Ispaniya va Italiyada topilgan, o'z davrining olimlari va tarjimonlari tomonidan Ibn Sino, Farg'oniy, Beruniy va Xorazmiyning lotin va jonli Yevropa tillariga o'girilgan asarlari ham Yevropadagi Uyg'onish davri jarayonlariga ijobiy ta'sir qildi. Uyg'onish davri gumanizm davriga, gumanizm esa ma'rifat davriga asos yaratdi. Buyuk ilm-fan namoyandalari, amaliy san'at ahli, yozuvchilar va shoirlar ana shu muhitda yetishib chiqdilar.[7]

Keyingi yillarda yurtimizda iqtisodiyot, ichki va tashqi siyosat, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat, ajdodlar merosi, xotirasi, diniy ma'rifat va tarbiya sohalaridagi islohotlar, yaqin va uzoq fursatlarga mo'ljallangan rejalar, xalqni rozi qilishga qaratilgan, inson manfaatlari va huquqlarini to'liq ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va bularning natijasida jamiyat a'zolarida shakllangan ertangi kunga ishonch yurtimizda Uchinchi Uyg'onish davriga qadam

qo'yayotganimizdan darak berib turibdi.

Ushbu muhim tarixiy bosqichda ilmiy-ma'rifiy muassasa sifatida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faol ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Uyg'onish davri barcha sohalardagi rivojlanish jarayonlarini faol davom etishini ta'minlashga qodir bo'lgan o'z sohasining bilimdoni, ayni paytda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat egalarini tayyorlashni taqozo qiladi. Ana shunday mutaxassislargina o'z yurtining fidoyilari bo'lib yetishadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Barkamol avlod orzusi. T. , «Sharq» nashriyoti matbaa kontserni. 2019 yil, -B. 144.
2. Komiljon Nosirov. Ajdodlar sabog'i. Jamiyat va boshqaruv 2019 yil, №1-2. -B. 45.
3. Erkin Yusupov, O'tkir Yusupov. Oila – ma'naviyat bulog'i. Toshkent, 2018, 18-bet.
4. J. Tulenov, Z. G'ofurov. Falsafa. Oliy o'quv yurtlari uchun. T. , «O'qituvchi», 2017, 294-bet.
5. U. Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. T. , «Fan», 2018, 72-bet.
6. M. Xolmatova. Oilaviy munosabatlар madанийи ва sog'lom avlod tarbiyasi. T. , «O'zbekiston», 2017, 174-bet.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud ahloq. Toshkent, «O'zbekiston», 2012 yil, 15-16-bet.
8. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish, omillari va vositalari. T. , «Ijod dunyosi» nashriyot uyi. 2019 yil, 7-bet.
9. Abu Xamid Muhammad al-G'azzoliy. Oxiratnama. Buxoro, 2017 yil 18-bet.